



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
O'SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI AGENTLIGI

BUYRUQ

“07” 11 2022 yil 456-b -sonli

Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi
huzurida jismoniy va yuridik shaxslar bilan nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha
Apellyatsiya kengashi faoliyatini tashkil etish maqsadida**

B U Y U R A M A N:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4754-son qarori (keyingi o'rinlarda – Qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi huzuridagi jismoniy va yuridik shaxslar bilan nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha Apellyatsiya kengashi (keyingi o'rinlarda – Apellyatsiya kengashi) tashkil etilsin va Apellyatsiya kengashi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Apellyatsiya kengashi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) huzurida nizolarni sudgacha hal qilish maqsadida tuziladigan kollegial-maslahat organi hisoblanadi.
4. Apellyatsiya kengashi o'z faoliyatini Qaror bilan tasdiqlangan Nizom talablariga to'liq rioya qilgan holda, jamoatchilik asosida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga muvofiq amalga oshiradi.
5. Matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchi (S.Sadinova) Agentlikda Apellyatsiya kengashi faoliyati yo'lga qo'yilganligi to'g'risida ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ibot ishlarini tashkil etsin hamda kengash faoliyati to'g'risida muntazam ravishda jamoatchilikni xabardor qilib borish choralari ko'rilishini ta'minlasin.
6. Devonxona (D.Adilova) mazkur buyruqni markaziy apparatning barcha boshqarma va bo'limlari hamda tizim tashkilotlariga yetkazsin.
7. Ushbu buyruqning ijrosi nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

Bosh director

I.Ergashev

**O'simliklar karantini va himoyasi agentligi huzuridagi jismoniy va yuridik
shaxslar bilan nizolarni sudgacha hal qilish bo'yicha
Apellyatsiya kengashi tarkibi**

T/r	Agentlik xodimlari lavozimi	F.I.SH.	Kengashdagi vakolati
1.	Agentlik bosh direktori	Ergashev Ibrohim Kenjabayevich	Kengash raisi
2.	Agentlik bosh direktorining o'rinbosari v.b.	Xamrayev Bobir Zoxir o'g'li	Kengash raisi o'rinbosari
3.	Agentlik bosh direktorining o'rinbosari v.b.	Kasimov Nodirjon Valijonovich	Kengash raisining o'rinbosari
4.	O'simliklar zararkunandalari, kasalliklari va begona o'tlarga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi boshlig'i	Yuldashev Zafar Rustamovich	Kengash a'zosi
5.	O'simliklar karantini nazorat boshqarmasi boshlig'i	Qosimov Zuxriddin Jaloliddinovich	Kengash a'zosi
6.	Yig'ma axborot-tahlil boshqarmasi boshlig'i	Anarbayev Dilshod Usmanovich	Kengash a'zosi
7.	Ijro intizomi, murojaatlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i	Djo'rayev Muxammadjon Odilovich	Kengash a'zosi

Izoh: Kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalar yuklangan shaxslar kiritiladi.